



THE KARMANA (MIRZACHORBOG‘) PALACE DURING THE MANGHIT EMIRATE: HISTORY AND ARCHITECTURAL FEATURES

Feruz Sayfutdinov

Lecturer, Asia International University

E-mail: sferuz1011@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Manghit Emirate, Emirate of Bukhara, Karmana, Mirzachorbog Palace, Sayyid Abdulahad Khan, traditional architecture, ganch carving.

Received: 04.09.26

Accepted: 05.09.26

Published: 06.09.26

Abstract: This article analyzes the historical and political significance of Karmana, one of the ancient cities of the Zarafshan Valley, during the rule of the Manghit dynasty (1756–1920), as well as the construction history and architectural features of Mirzachorbog Palace, an emirate residence built in Karmana during this period. The study examines Karmana’s role in the administrative system of the Emirate of Bukhara during its final stage, the founders of the palace, its artistic decorations, and its fate in the 20th–21st centuries. These aspects are explored on the basis of classical and contemporary scholarly and historical literature, as well as archival and official sources.

MANG‘IT AMIRLIGI DAVRIDA KARMANA (MIRZACHORBOG‘) SAROYI: TARIXI VA ME‘MORCHILIK XUSUSIYATLARI

Feruz Sayfutdinov

Osiyo Xalqaro Universiteti O‘qituvchisi

e-mail: sferuz1011@gmail.com

Buxoro, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Mang‘it amirligi, Buxoro amirligi, Karmana, Mirzachorbog‘ saroyi, Sayid Abdulahadxon, an‘anaviy me‘morchilik, ganchkorlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zarafshon vodiysining qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan Karmananing Mang‘it sulolasi (1756–1920) hukmronligi davridagi tarixiy-siyosiy o‘rni, shuningdek shu davrda

Karmanada barpo etilgan amirlik saroyi - Mirzachorbog' qarorgohining qurilish tarixi va me'morchilik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Buxoro amirligining so'nggi bosqichida Karmananing amirlik boshqaruv tizimidagi o'rni, saroyning bunyodkorlari, uning badiiy bezaklari hamda XX–XXI asrlardagi taqdiri klassik va zamonaviy ilmiy-tarixiy adabiyotlar hamda arxiv va rasmiy manbalar asosida yoritiladi.

ДВОРЕЦ КАРМАНЫ (МИРЗАЧОРБОГ) В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА: ИСТОРИЯ И АРХИТЕКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Феруз Сайфутдинов

Преподаватель, Международный университет Азии

E-mail: sferuz1011@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Мангытский эмират, Бухарский эмират, Кармана, дворец Мирзачорбог, Саид Абдулахад-хан, традиционная архитектура, ганчевая резьба.

Аннотация: В данной статье анализируется историко-политическое значение Карманы — одного из древних городов Зарафшанской долины — в период правления династии Мангытов (1756–1920), а также история строительства и архитектурные особенности дворца Мирзачорбог — резиденции эмирата, возведённой в Кармане в этот период. В исследовании освещаются роль Карманы в административной системе Бухарского эмирата на его заключительном этапе, создатели дворца, его художественное оформление, а также судьба дворца в XX–XXI веках. Данные вопросы рассматриваются на основе классической и современной научно-исторической литературы, а также архивных и официальных источников.

Kirish. O'rta Osiyoning, xususan Movarounnahrning so'nggi yirik davlat uyushmalaridan biri bo'lgan Buxoro amirligi tarixi, uning ma'muriy-hududiy tuzilishi va me'moriy merosi bugungi kunda ham o'zbek tarixshunosligining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Amirlikning poytaxti Buxoro shahri barcha davrlarda tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lgan bo'lsa-da, uning viloyat markazlaridagi - xususan, Zarafshon vodiysining muhim bekliklaridan biri Karmanadagi - siyosiy-ma'muriy va me'moriy jarayonlar nisbatan kam o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi.

Karmana - hozirgi Navoiy viloyati hududida, Zarafshon daryosining bo'yida joylashgan, ming - yillik tarixga ega qadimiy manzilgohlardan biridir. X asrda yashab ijod etgan mashhur tarixchi Abu Bakr Narshahiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida Karmanani Buxoroning qishloqlaridan biri sifatida tilga olib, uning "suvi Buxoro suvidan kelishi", "hiroji Buxoro hirojiga qo'shilishi"ni, o'ziga tegishli alohida jome masjidi mavjudligini hamda bu yerda ko'plab adib va shoirlar yetishib chiqqanini qayd etadi. Manbalarda, shuningdek, Karmananing qadim zamonlarda "Bodiyai xurdak" ("kichik ko'zacha") deb atalgani va undan Buxoroga qadar masofa o'n to'rt farsang (taxminan 80–90 km) bo'lgani haqida ma'lumot beriladi.

Ushbu qadimiy va strategik jihatdan qulay manzilgoh XVIII asr o'rtalaridan boshlab - ya'ni Buxoro taxtida Ashtarxoniylar sulolasi o'rnini Mang'it sulolasi egallagach - o'zining yangi, ilgarigidan ancha yuksak siyosiy maqomiga ega bo'ladi. Amalda davlat boshqaruvini o'z qo'lga olgan Muhammad Rahimbiy 1756-yilda so'nggi Ashtarxoniylar shahzodalarini taxt vorisligidan chetlatib, rasman davlat hukmdoriga aylanadi, shu tariqa Buxoroda deyarli ikki yarim asr (1756–1920) davom etgan Mang'it sulolasi hukmronligi boshlanadi. Mazkur maqolaning maqsadi - aynan shu davrda Karmananing amirlik ma'muriy-siyosiy tizimidagi o'rnini, shuningdek unda barpo etilgan Karmana (Mirzachorbog') saroyi tarixi va me'morchiligini yaxlit tadqiqot predmeti sifatida yoritishdan iboratdir.

Karmana tarixi va undagi me'moriy yodgorliklar so'nggi o'n yilliklarda mahalliy tarixchilar tomonidan bir qator maxsus tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, A. Xotamov va N. Bekniyozovning "Karmana - qadimiy diyor" nomli monografiyasida shahar tarixi umumiy tarzda bayon etilgan bo'lsa, A. Qandaharovning monografiyasida Buxoro xonligi davrida faoliyat yuritgan karmanalik shayxlar faoliyati chuqur tahlil qilingan. O. Haitova va X. Qurbonovning "Karmana tarixi" asari hamda A. Zaripov va Sh. Shernazarning "Karmana kechmishi" kitobi shaharning turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritishga bag'ishlangan.

Mirzachorbog' saroyining o'zi haqidagi dastlabki ilmiy-tavsifiy ma'lumotlar XX asrning 20-yillariga borib taqaladi: sharqshunos I. Umnyakov muhandis M. Loginov bilan hamkorlikda Buxoro va Karmana hududidagi amirlik saroylarining saqlanish holatini o'rganib, ularning o'lchovlarini olgan hamda fotofiksatsiya va ro'yxatga olish ishlarini amalga oshirgan. Saroyning bevosita me'moriy tuzilishiga oid batafsil ma'lumotlar A. Xotamov va Sh. Halilovning "Yillar sadosi" kitobida keltirilgan. So'nggi yillarda mavzu yana bir bor ilmiy dolzarblik kasb etmoqda: jumladan, F. Sayfutdinovning Mang'it amirlari davridagi Buxoro amirligi saroylari me'morchiligiga bag'ishlangan maqolasi hamda J. Shuhratovning bevosita Mirzachorbog' saroyi va uning zamonaviy turizm salohiyatiga oid tadqiqoti shular jumlasidandir. Shunga qaramay,

Karmananing Mang'it amirligi siyosiy tizimidagi o'rni bilan saroy me'morchiligini yaxlit, bir-biriga bog'liq holda tahlil qiluvchi maxsus tadqiqot hali yetarlicha amalga oshirilmagan, bu esa mazkur maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Karmananing Mang'it davridagi yuksak siyosiy maqomini tushunish uchun uning oldingi asrlardagi ma'naviy-siyosiy ahamiyatiga qisqacha to'xtalish lozim. XVI asrda Shayboniylar sulolasidan bo'lgan Buxoro hukmdori Abdullaxon II ning piri - mashhur naqshbandiya shayxi Hazrat Qosim Shayx Azizon aynan Karmanada faoliyat yuritgan. Manbalarning guvohlik berishicha, Abdullaxon II tez-tez Karmanaga - piri huzuriga kelib turgan va undan ma'naviy hamda siyosiy maslahatlar olgan. Qosim Shayx 1581-yilda vafot etgach, Abdullaxon II uning qabri ustiga katta xonaqoh va jome masjid majmuasini qurdirgan, bu majmua bugungi kungacha faol ziyoratgoh sifatida saqlanib qolgan. Birinchi Prezident I. Karimov ta'kidlaganidek, Karmanadagi Qosim Shayx, Mir Sayyid Bahrom, Shayx Xo'ja Xusrav maqbaralari hamda Mirzachorbog' tarixiy yodgorligi - bularning barchasi xalqning ma'naviy mulki hisoblanadi.

Bunday ma'naviy salohiyat Karmananing nafaqat diniy, balki siyosiy jihatdan ham alohida maqom kasb etishiga zamin yaratgan edi. Zero, o'rta asr Movarounnahrida yirik tariqat shayxlarining qarorgohi bo'lgan hududlar ko'pincha hukmdorlar e'tiborida bo'lgan va bu bilan bog'liq siyosiy aloqalar mazkur hududlarning martabasini oshirgan. Mang'it amirlari hukmronligi davrida Karmananing amirlikning ikkinchi siyosiy markaziga aylanishi ham, bir tomondan, uning qadimdan mavjud bo'lgan ushbu ma'naviy nufuziga, ikkinchi tomondan esa uning Buxoro va Samarqand oralig'idagi geografik-strategik qulayligiga bog'liq bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin.

Buxoro amirligi hududiy jihatdan bir necha o'nlab beklik (viloyat)larga bo'lingan bo'lib, Amir Nasrullo (1827–1860) hukmronligining eng yuksalgan davrida, ya'ni amirlik hududi eng katta bo'lgan paytda, uning tarkibida Qarshi, G'uzor, Chiroqchi, Shahrisabz, Hisor, Qo'rg'ontepa va boshqa qator bekliklar qatorida Karmana bekligi ham mavjud bo'lgan. Biroq Karmananing boshqa bekliklardan farqli o'laroq alohida ahamiyati shundaki, tadqiqotchilar ta'kidlashicha, Mang'it sulolalari hukmronligi davrida u davlatning "yirik bekligi", "norasmiy poytaxti" maqomiga ega bo'lgan va xonlar davlatni bir necha bor aynan shu yerdan turib boshqarishgan.

Bu borada eng yorqin misol - amirlikning so'nggi yillaridagi voqealardir. Manbalarga ko'ra, Buxoroning so'nggi amiri Sayid Olimxonning otasi, to'qqizinchi mang'it amiri Sayid Abdulahadxon (1885–1910-yillarda hukmronlik qilgan) 1894-yildan to vafotiga qadar amirlikni aynan Karmanadan turib boshqargan. Shu davr mobaynida u Karmana atrofida bir qancha chorbog' - saroy majmualarini, jumladan Charmgarchorbog', Gulchorbog', Bog'i olchin va

Jarchorbog'ni bunyod ettirgan, biroq ularning faqat bittasi - Mirzachorbog' - bizning kunlarimizgacha, garchi vayrona holatda bo'lsa-da, yetib kelgan .

Karmananing amirlik siyosiy hayotidagi o'rniga oid yana bir muhim dalil - bu yerning mang'it valiahdlari uchun o'ziga xos tayyorgarlik maskani vazifasini o'tagani haqidagi ma'lumotlardir. Xususan, kelajakda Amir Muzaffar (1860–1885) nomi bilan taxtga o'tiradigan shahzoda Muzaffar amir Nasrullo hukmronligi davrida aynan Karmanada istiqomat qilgan . Bir necha o'n yillar o'tib, xuddi shunga o'xshash holat takrorlanadi: so'nggi amir Sayid Olimxon otasi vafot etgan lahzada Karmana hokimi lavozimida faoliyat yuritayotgan edi va u dafn marosimidan so'nggina Buxoroga kelib, 1910-yil 24-dekabrda amirlik taxtiga o'tirgan . Bundan tashqari, Sayid Olimxonning o'zi ham 1881-yil 18-dekabrda aynan Karmana shahrida tavallud topgani manbalarda alohida qayd etiladi . Amir Abdulahadxon esa 1910-yil 22-dekabrda Karmana yaqinidagi Xayrobod chorbog'ida, 54 yoshida vafot etgan . Yuqoridagi dalillar yig'indisi Karmananing XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligi siyosiy tizimida oddiy beklikdan ancha yuqori, poytaxtga muqobil ikkinchi markaz maqomiga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Shuningdek, amir Nasrullo davrida Karmana siyosiy surgun (badarg'a) markazi vazifasini ham bajargan: amirdan norozi bo'lgan bir qator amaldorlar shu yerga surgun qilingan; keyinchalik Amir Muzaffar taxtga chiqqach, otasi surgun qilgan kishilarni Buxoroga qaytarishga farmon bergan . Bu dalil ham Karmananing amirlik ma'muriy-siyosiy tizimida oddiy viloyat markazidan farqli, alohida nazorat ostidagi maxsus mavqega ega bo'lganini ko'rsatadi.

Karmanadagi amirlik saroy majmualari orasida bugungi kunga qadar (qisman bo'lsa-da) saqlanib qolgan yagona obida - bu Mirzachorbog' qarorgohi (Mirzachorbog' xonqarorgohi)dir. Saroy amir Sayid Abdulahadxon farmoni bilan 1900–1905-yillarda qurilgan bo'lib, Buxoroning so'nggi amirlarining yozgi qarorgohi vazifasini o'tagan . Saroy Karmana shaharchasining shimoliy qismida, Zarafshon daryosiga yaqin "Ko'hnaqo'rg'on" mahallasida, hozirgi Amir Olimxon va Mirzachorbog' ko'chalari kesishgan hududda qad ko'targan.

Qurilish uchun aynan shu joy tanlanishida bir qancha omillar - jumladan, Zarafshon daryosi yaqinligidan keladigan salqinlik, bog'-rog' barpo etish uchun tuproqning unumdorligi, Nurota tog' tizmasi tomonidan doimiy esib turadigan sovuq shabada, hamda ovchilik uchun qulay tabiiy sharoit hisobga olingan . Saroy qurilishiga me'mor Abdurahim Turdimurod o'g'li G'azg'oniy bosh-qosh bo'lgan, binoning ganchkorlik va o'ymakorlik bezaklarini esa o'sha davrning nomdor ustasi Shirin Murodov bajargan . Qurilish jarayonida, shuningdek, karmanalik duradgor Najjor To'ra, usta Latif, usta Do'st va usta Sulton Qori kabi mahalliy hunarmandlar ham ishtirok etgan. Manbalarda qayd etilishicha, saroy qurilishida jami mingga yaqin usta va

hunarmand jalb qilingan - bu raqamning o'zi ham qurilishning ko'lam va uning davr me'morchiligi uchun naqadar muhim loyiha bo'lganidan dalolat beradi.

Mirzachorbog' saroyi tarkibiy jihatdan ikki asosiy qismga bo'lingan. Birinchi, "rasmiy" qismi 6x20 metrlik, balandligi 11 metrga yetadigan bino bo'lib, u ikki xonali dahliz (kirish qismi) va o'n besh boroli mehmonxonadan iborat bo'lgan. Dahlizning tepa qismida boloxona joylashgan bo'lib, har ikki xonaning ichki devorlari nafis o'ymakorlik va naqqoshlik ishlari bilan bezatilgan. Mehmonxonaning to'rida katta yoysimon mehrob barpo etilgan, uning ikki yonida qo'shimcha ravoqlar qurilgan; xonaning shimoliy va janubiy devorlarining yuqori qismlarida ham to'rttadan ravoq ko'zga tashlanadi. Binoning sakkizta derazasi Yevropacha uslubda, yuqori qismi qo'ng'iroqsimon shaklda ishlangan bo'lib, bu o'sha davr Buxoro rasmiy me'morchiligiga xos an'anaviy va Yevropa uslublarining o'ziga xos uyg'unlashuvidan dalolat beradi. Binoga shimoliy tomondan ikkita eshik orqali kirilgan, ular ham nafis o'ymakorlik naqshlari bilan bezatilgan.

Mehmonxona binosidan g'arbda yana bir, o'n xonali bino joylashgan bo'lib, u me'moriy jihatdan birinchisiga nisbatan ancha sodda ko'rinishga ega. Ushbu binoning poydevori 28x28x4 sm o'lchamdagi g'ishtlarning yigirma besh qatoridan (balandligi taxminan bir metrgacha) tiklangan bo'lib, qiziqarli jihati shundaki, yigirma oltinchi qator g'ishtlari maxsus - zilzilabardoshlikni ta'minlash maqsadida - tik holatda terilgan, bu esa o'sha davr mahalliy me'morlarining seysmik xavfsizlik masalalariga ham jiddiy yondashganidan guvohlik beradi. Binoning sinch-devor konstruksiyasi ko'pburchak shaklida joylashtirilgan bo'lib, ularning qirralari ko'zga tashlanmaydigan tarzda yashiringan; xonalarning ichki qismi esa sharqona uslubda bezatilgan. Hovli maydonining bir chekkasida chuqurligi 9–12 metrga yetadigan quduq bo'lgan, keyinchalik u ko'milgan.

Yuqorida keltirilgan me'moriy tavsif shuni ko'rsatadiki, Mirzachorbog' saroyi o'zida XIX asr oxiri - XX asr boshlari Buxoro amirligiga xos an'anaviy yog'och me'morchiligi, ganchkorlik va o'ymakorlik san'atining yuksak namunalari mujassam etgan, shu bilan birga unda Yevropa me'morchiligi unsurlari (derazalar shakli kabi) bilan uyg'unlashuv ham kuzatiladi. Bu holat, umuman olganda, XIX asr oxiri - XX asr boshi Buxoro amirligi rasmiy saroy me'morchiligiga xos umumiy xususiyat bo'lib, shu davrda qurilgan boshqa amirlik qarorgohlarida ham u yoki bu darajada namoyon bo'ladi.

1920-yilda Buxoro amirligi tugatilgach, Mirzachorbog' saroyi o'zining dastlabki vazifasini yo'qotib, turli maqsadlarda foydalanila boshlandi. Manbalarga ko'ra, 1942–1943-yillarda, ya'ni Ikkinchi jahon urushi davrida, saroy binosidan Sovet hududiga evakuatsiya qilingan Polsha harbiy qismlari uchun qarorgoh (kazarma) sifatida foydalanilgan. Urushdan

so'ng bino kolxoz idorasi vazifasini bajargan, 1960-yillardan 1974–1975-yillargacha esa unda pillachilik (ipak qurti boqish) idorasi joylashgan . Ushbu davr mobaynida saroy o'zining asl vazifasidan uzoqlashib, muntazam ta'mirlash va parvarish ko'rmagani sababli asta-sekin buzila boshladi; binoning nafis ganchkorlik va o'ymakorlik bezaklari, qadimiy yog'och ustunlari yetarli e'tiborsiz qoldirildi.

Mustaqillik yillarida Karmanadagi tarixiy obidalarga davlat miqyosida e'tibor kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 27-maydagi farmonida ikki oy muddat ichida Karmanadagi bir qator tarixiy obyektlar - jumladan, Mirsaid Bahrom maqbarasi, Hazrat Qosim Shayx maqbarasi majmui, Shayx Xo'ja Husrav maqbarasi va Mirzachorbog' yodgorligini qayta ta'mirlash dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash belgilangan edi . Biroq amalda ushbu dastur to'liq ro'yobga chiqmagan: 2009-yilda saroyning ta'mirlash ishlarini boshlash rejalashtirilgan bo'lsa-da, amalda hech qanday ish amalga oshirilmagan .

2017–2018-yillarda aholi orasida "Mirzachorbog'da oltin xazina topilgan" degan mish-mish tarqalishi natijasida mahalliy aholi tomonidan saroyning devor va ganchkorlik naqshlari buzib tashlangan, qadimiy taxt o'rni qazilgan hamda xonalarga kiraverishdagi zinapoyalar vayron qilingan . 2019-yil aprel oyida esa saroy kutish xonasining yog'och asosli poydevori qulab tushgan, halokat sodir bo'lgan joyda faqat naqsh parchalarigina saqlanib qolgan; noyob kedr va yong'oq daraxtidan ishlangan, o'ymakorlik naqshlari tushirilgan qalin ustunlar va eshik-derazalar mahalliy aholi tomonidan olib ketilgan .

Vaziyat 2020–2021-yillarga kelib biroz o'zgardi: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan Mirzachorbog' obidasi madaniy meros obyektlarini ta'mirlash-tiklash dasturiga kiritildi , 2021-yil avgust oyida esa restavratsiya ishlari uchun davlat byudjetidan 3,1 milliard so'm mablag' ajratilgani rasman e'lon qilindi . Madaniy meros agentligi Navoiy viloyat boshqarmasining 2024-yildagi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, ta'mirlash-tiklash ishlari loyihasmeta hujjatlari asosida davom ettirilmoqda va obyektni foydalanishga topshirish 2025-yilning to'rtinchi choragiga rejalashtirilgan .

Shu bilan birga, so'nggi yillarda mintaqada Karmana tarixiga, xususan Mirzachorbog' saroyiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari ham faollashgani kuzatiladi - jumladan, saroy me'morchiligi va uning zamonaviy turizm salohiyatini oshirishdagi ahamiyatiga bag'ishlangan maxsus maqolalar chop etilmoqda, bu esa mavzuning ilmiy jamoatchilik e'tiboridan chetda qolmayotganini ko'rsatadi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Karmana Mang'it amirligi (1756–1920) davrida oddiy beklik markazidan ancha yuqori - amirlikning ikkinchi siyosiy markazi maqomiga ega bo'lgan hudud edi. Bu maqom, bir tomondan, uning XVI asrdanoq shakllangan ma'naviy-

diniy nufuziga, ikkinchi tomondan esa geografik-strategik qulayligiga asoslangan edi. Ayniqsa amirlikning so‘nggi o‘ttiz yilida, Amir Sayid Abdulahadxon davrida (1894–1910), Karmana amalda davlat boshqaruvining muqobil markaziga aylandi, bu esa 1900–1905-yillarda barpo etilgan Mirzachorbog‘ saroyi kabi yirik me‘moriy majmuaning qad ko‘tarishiga bevosita zamin yaratdi. Mirzachorbog‘ saroyi o‘zida XIX asr oxiri - XX asr boshlari Buxoro amirligi rasmiy me‘morchiligining o‘ziga xos uslubini - an‘anaviy yog‘och ustunli konstruksiya, ganchkorlik, o‘ymakorlik va naqqoshlik san‘ati bilan Yevropa me‘morchiligi unsurlarining uyg‘unlashuvini mujassam etgan noyob yodgorlikdir. Afsuski, XX asr davomida saroyning asl vazifasidan chetlashtirilishi, keyinchalik esa e‘tiborsizlik va vaqti-vaqti bilan yuz bergan talon-tarojlar oqibatida bu noyob obida bugungi kunga qisman vayrona holatda yetib kelgan. So‘nggi yillarda davlat tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, xususan restavratsiya ishlarining boshlanishi umidbaxsh bo‘lsa-da, mazkur milliy me‘moriy merosni to‘liq saqlab qolish va uni ilmiy asosda o‘rganishni davom ettirish bugungi kun tarixchi va me‘morchilik mutaxassislari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Наршахий, Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар. Бухоро тарихи. - Тошкент, 1991.
2. Айний, Садриддин. Таърихи амирони манғитияи Бухоро. - Тошканд, 1923 (қайта нашр: Куллиёт. - Душанбе: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1966. - Ж. 10. - Б. 5–191).
3. фон Кюгельген, Анке. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII–XIX вв.). - Алматы: Дайк-Пресс, 2004. - 516 б.
4. Сухарева, О.А. К истории городов Бухарского ханства. - Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1958.
5. Хотамов А., Ҳалилов Ш. Йиллар садоси. - Тошкент: Адолат, 1995.
6. Хотамов А., Бекниёзов Н. Кармана - қадимий диёр. - Тошкент: Ўзбекистон, 2007. - 152 б. ISBN 978-9943-01-070-3.
7. Қандаҳаров А. Бухоро хонлиги ва унда карманалик шайхлар фаолияти: монография. - Тошкент: Тафаккур қаноти, 2018. - 152 б.
8. Ҳайтова О., Қурбонов Х. Кармана тарихи. - Тошкент: Машхур-пресс, 2018. - 216 б. ISBN 978-9943-5163-5-9.
9. Зарипов А., Шерназар Ш. Кармана кечмиши. - Тошкент: Саҳҳоф, 2021. - 192 б. ISBN 978-9943-6665-8-0.
10. Сайфутдинов Ф. Манғит амирлари даврида Бухоро амирлиги меъморчилик соҳаси ривожини // Modern Science and Research. - 2024.

11. Шухратов Ж. Мирзачорбоғ саройи резиденцияси туризм манзили // ZDIF. - 2026. - Ж. 5, № 4. - Б. 31–32. DOI: 10.5281/zenodo.18504157.
12. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. - 2020. - № 7.
13. Zarafshon daryosi qirg'og'idagi qadimiy maskan – Karmana // Новости образования: исследование в XXI веке. - 2025. - Апрель.
14. Navoiy viloyati hokimligining rasmiy veb-sayti: viloyatdagi diqqatga sazovor joylar. - old.navoi.uz.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-2323-son Farmoni, 27.05.1999. - lex.uz.
16. Mirza-Charbagh Residence // Wikipedia (inglizcha bo'lim), manba: Хотамов А., Ҳалилов Ш. Йиллар садоси (1995) asosida.